ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 2026

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

# ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

ТОМ 4, НОМЕР 4

# JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4

ТОШКЕНТ-2026

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4



**Бош муҳаррир: | Главный редактор: Chief Editor:**

**Matyakubov Umidjon Raximovich**
(i.f.d., prof.)

**Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель главного редактора: | Deputy Chief Editor:**

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**
(PhD., dots.)

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**FILOLOGIYA FANLARI**

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Oybek Saporboyevich**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**Galiyeva Margarita Rafaelovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti
**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti
**Yakubova Matluba Tajibayevna**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

**TARIX FANLARI**

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**
Tarix fanlari doktori, professor; akademik O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**
Tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti.
**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**
Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya
**Abdullayev Utkir Ismoilovich**
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent Urganch davlat universiteti
**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Timur Pulatovich**
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdalov Umidbek Matniyazovich**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent Ma'mun Universiteti NTM
**Yunusxo'jayev habibulla Zafar o'g'li**
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**PSIXOLOGIYA FANLARI**

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi
**Kryukova Tatyana Leonidovna**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya
**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**
Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya
**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna**
Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**IQTISODIYOT FANLARI**

**Ruzmetov Baxtiyar**
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Sherov Alisher Bakberganovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Voronsova Yuliya Vladimirovna**
Iqtisodiyot fanlari nomzodi
Moskva davlat boshqaruvi universiteti
**Jabborov Umarbek Rustambekovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Cho'ponov San'at Otanazarovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Niyazmetov Islambek Masharipovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

**PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

**Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li**
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ma'mun Universiteti NTM
**Adilov Zafar Yunusovich**
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM
**Boltayev Abdurahim Amanovich**
Falsafa fanlari doktori, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Zoirov Erkin Xalilovich**
Falsafa fanlari doktori, dotsent
Buxoro davlat texnika universiteti
**Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**
Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**TIBBIYOT FANLARI**

**Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM
**Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**
Tibbiyot fanlari doktori, professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Esamuratov Aybek Ibragimovich**
Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Samandarova Barno Sultonovna**
Biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
**Tajiyeva Zebo Baxodirovna**
Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

**Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li**
Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: X. Mirzaxmedov

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

## IQTISOD

**1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.............................................8

**2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova**.
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR KO’RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI..................................13

**3. S. Allayarov**.
MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.......................................................................................16

**4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)..........................20

**5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI..............................................................27

**6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.......................................33

**7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.......................................................................38

**8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI..............................................................................43

**9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK: MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.......................48

**10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI....................................................54

**11. Li Yang**.
EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.........................................................58

**12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE MANAGEMENT.......................................................................................................64

**13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.**
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)..............................68

**14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o‘g‘li.**
XORAZM VILOYATIDA IQLIM O‘ZGARISHI VA INSTITUTSIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI............................72

## TARIX

**1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобовна**.
ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР)......................................................................................................................79

**2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.**
MOHENJO-DARO VA XARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO‘LISHI VA TARAQQIYOTI.........................................................................................................88

**3. Otamuradova Roviyajon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi**.
MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O‘RGANISH.........................................................................................92

**4. Saotboyev Raxmatjon Madamin o‘g‘li.**
XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR............................................95

**5. Саидов Шавкат Жумабаевич.**
XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ..........................................................................................................100

**6. Salayev Umrbek Kadambayevich.**
QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI......................................................................106

**7. Safarov Tolib Todjiyevich.**
XIVA XONLIGIGA KO‘CHIB KELGAN TURKMAN URUG‘LARI HAQIDA AYRIM MA’LUMOTLAR...........................................................................................................111

**8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.**
JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILISH TARIXI..............................................................................................................................116

## FILOLOGIYA

**1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.**
ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O`ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

**2. B.Q. Sapayeva.**
O‘ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI...................125

**3. Sobirova Gulasal Zokir qizi**.
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS....129

**4. Mokhinur Murodova Azamat qizi**.
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS....136

**5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR....143

**6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGUAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA)....147

## PEDAGOGIKA

**1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIIY MAHORATINI OSHIRISH....153

**2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI....161

**3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI....166

**4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI....170

**5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT....176

**6. Jammatov Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR....183

**7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

## PSIXOLOGIYA

**1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG’INCH SINF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI....195

**2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI....199

**3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI....203

ISSN: 2181-0000
www.tadqiqot.uz
«MA'MUN SCIENCE» JURNALI
ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL «OF MAMUN SCIENCE»

**Matkarimov Feruz Bekturdiyevich-**
Ma'mun universiteti "Biznesni boshqarish kafedrasi dotsenti v.b.
e-mail: feruz_matkarimov@mamunedu.uz

# MINTAQA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20155843**

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada mintaqa to'qimachilik mahsulotlarining global bozorda raqobatbardoshligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda to'qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi o'rni, eksport salohiyati hamda mavjud muammolar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari mintaqa to'qimachilik sanoatini rivojlantirish va global bozorda barqaror o'rin egallash uchun amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** to'qimachilik sanoati, raqobatbardoshlik, eksport, global bozor, brending, logistika, innovatsiya, texnologik modernizatsiya.

---

## WAYS TO IMPROVE THE COMPETITIVENESS OF REGIONAL TEXTILE PRODUCTS IN THE GLOBAL MARKET

**Annotation**

This article analyzes ways to enhance the competitiveness of regional textile products in the global market. The study examines the role of the textile industry in the economy, its export potential, and existing challenges. Based on the research findings, practical conclusions and recommendations have been developed to promote the growth of the regional textile industry and to secure a stable position in the global market.

**Key words:** textile industry, competitiveness, export, global market, branding, logistics, innovation, technological modernization.

---

## ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОДУКЦИИ РЕГИОНА НА МИРОВОМ РЫНКЕ

**Аннотация**

В данной статье анализируются пути повышения конкурентоспособности текстильной продукции региона на мировом рынке. В исследовании рассматриваются роль текстильной промышленности в экономике, её экспортный потенциал и существующие проблемы. По результатам исследования разработаны практические выводы и рекомендации, направленные на развитие текстильной отрасли региона и укрепление её позиций на мировом рынке.

**Ключевые слова:** текстильная промышленность, конкурентоспособность, экспорт, мировой рынок, добавленная стоимость, брендинг, логистика, инновации, технологическая модернизация

**Kirish va dolzarbligi**

Bugungi kunda jahon iqtisodiyoti globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi hamda raqobat muhitining keskin kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu sharoitda har bir mamlakat va mintaqa o‘zining iqtisodiy salohiyatini oshirish, eksport hajmini kengaytirish va xalqaro bozorlarda barqaror o‘rin egallashga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmoqlari ichida yuqori mehnat sig‘imi, keng bandlik imkoniyatlari va tezkor qayta ishlash xususiyati bilan ajralib turadigan to‘qimachilik sanoati alohida strategik ahamiyat kasb etadi.

To‘qimachilik sanoati nafaqat ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida, balki iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanish, aholi bandligini ta’minlash hamda eksport salohiyatini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu tarmoq qisqa muddatda yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini beruvchi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Xitoy, Turkiya, Bangladesh, Hindiston kabi davlatlar aynan to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish orqali global bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlab, iqtisodiy o‘sishni ta’minlagan.

Hozirgi davrda global to‘qimachilik bozori tobora murakkablashib borayotgan bo‘lib, unda raqobat faqat arzon ishchi kuchi yoki xomashyo ustunligi bilan emas, balki innovatsion texnologiyalar, mahsulot sifati, dizayn, logistika samaradorligi hamda brend qiymati orqali belgilanmoqda. Natijada, an’anaviy ishlab chiqarish modellari o‘z ahamiyatini qisman yo‘qotib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan yangi yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ham to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishga alohida e’tibor va imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz prezidentining PF-71-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi farmonida xomashyoni to‘liq qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarishni hajmini oshirish, sanoat zonalarini tashkil etish hamda milliy brendlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan[1]. Bundan tashqari “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarorida eksport hajmini 2025-yilda 4 mlrd, 2026-yilda 5 mlrd va 2027-yilda 7 mlrd dollarga yetkazish hamda tayyor mahsulot ulushini 70 foizgacha oshirish belgilangan. Shuningdek, AQSh va Yevropa bozorlariga chiqish, mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan[2]. Umuman olganda, farmon tarmoqni yuqori qo‘shilgan qiymatli va eksportga yo‘naltirilgan sohaga aylantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, mintaqa to‘qimachilik mahsulotlarining global bozordagi raqobatbardoshligini oshirish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayib borishi, sifat va standartlarga qo‘yilayotgan talablarning ortishi hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga ehtiyojning oshishi mintaqaviy ishlab chiqaruvchilardan yanada samarali va zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, ishlab chiqarish zanjirini chuqurlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksportni diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Metodlar va o‘rganilganlik darajasi**

Mintaqa to‘qimachilik mahsulotlarining global bozordagi raqobatbardoshligini oshirish masalasi iqtisodiyot fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotlar asosan raqobat ustunligi, eksport samaradorligi, qiymat zanjiri va sanoatni modernizatsiya qilish masalalariga qaratilgan.

Raqobatbardoshlik nazariyasining metodologik asoslari Michael Porter tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u mamlakat va tarmoqlarning global bozordagi ustunligi omillarini “raqobat ustunligi” modeli orqali izohlaydi. Porterga ko‘ra, sanoatning muvaffaqiyati ishlab chiqarish omillari, talab sharoiti, qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar va firma strategiyasining uyg‘unligiga bog‘liq. Ushbu yondashuv to‘qimachilik sanoatida ham keng qo‘llanilib, tarmoqning raqobatbardoshligini kompleks baholash imkonini beradi[3].

Eksport raqobatbardoshligini baholash masalalari Béla Balassa tomonidan taklif etilgan nisbiy ustunlik (RCA) indeksi orqali o‘rganilgan. Mazkur yondashuv mamlakatning muayyan

mahsulot bo'yicha xalqaro savdoda qanchalik ustun ekanligini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu model to'qimachilik sanoatiga tatbiq etilib, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurligi asoslab berilgan[4].

So'nggi yillardagi ilmiy ishlarda to'qimachilik sanoatining rivojlanishida global qiymat zanjirlari muhim o'rin tutishi ta'kidlanmoqda. Jumladan, World Bank va UNIDO tadqiqotlarida xomashyo eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy sharti sifatida ko'rsatilgan. Ushbu yondashuvga ko'ra, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish orqali mamlakatlar global bozorda barqaror o'rin egallashi mumkin[5].

**Natijalar va muhokama**

Mintaqa to'qimachilik sanoatining global bozordagi raqobatbardoshligini oshirish ko'p omilli va kompleks jarayon bo'lib, u ishlab chiqarishdan tortib marketing va logistika tizimigacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Zamonaviy sharoitda raqobat ustunligi faqat arzon xomashyo yoki ishchi kuchi bilan emas, balki yuqori qo'shilgan qiymat, innovatsiyalar va samarali boshqaruv orqali ta'minlanadi (1-jadval).

**1-jadval**

**To'qimachilik sanoatini Raqobatbardoshlikka ta'sir qiluvchi omillar[6]**

| Omillar | Mazmuni | Ta'siri |
|---|---|---|
| Chuqur qayta ishlash | Xomashyoni tayyor mahsulotgacha yetkazish | Qo'shilgan qiymat oshadi |
| Texnologiya | Zamonaviy uskunalar va avtomatlashtirish | Sifat va samaradorlik oshadi |
| Marketing | Brend va reklama siyosati | Bozor kengayadi |
| Logistika | Transport va eksport tizimi | Yetkazib berish tezlashadi |
| Innovatsiya | Yangi mahsulot va dizayn | Raqobatda ustunlik |
| Davlat qo'llab-quvvatlashi | Imtiyozlar va investitsiyalar | Tarmoq rivojlanadi |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda alohida bir omilning o'zi yetarli emas, balki ishlab chiqarish, texnologiya, logistika, marketing va innovatsiya kabi omillarning o'zaro uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan birining sust rivojlanishi umumiy tizim samaradorligini pasaytiradi. Masalan, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarilgan taqdirda ham, agar logistika tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa yoki marketing strategiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, mahsulot global bozorda o'z o'rnini topa olmaydi. Shu sababli, raqobatbardoshlikni oshirish kompleks yondashuvni talab etadi va barcha omillarni bir butun tizim sifatida rivojlantirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida to'qimachilik sanoati mamlakat va mintaqalar iqtisodiy rivojlanishining muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xomashyo resurslariga boy hududlar uchun ushbu sohani chuqur qayta ishlash asosida rivojlantirish orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati mavjud. Biroq global bozorda raqobat keskinlashib borayotganligi sababli, oddiy xomashyo eksporti bilan cheklanib qolish iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Shu bois to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda ishlab chiqarish zanjirini takomillashtirish, texnologik modernizatsiya, mahsulot sifatini oshirish hamda marketing va eksport strategiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, yagona tizim sifatida amalga oshirilgandagina yuqori natija beradi (1-rasm).




**1-rasm. To'qimachilik mahsulotlarining global bozorda raqobatbardoshligini oshirish modeli**[6]

To'qimachilik sanoatida global raqobatbardoshlikka erishish bosqichma-bosqich va tizimli yondashuvni talab etadi. Xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratiladi, texnologik modernizatsiya esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Mahsulot sifatining xalqaro standartlarga mosligi va samarali brending siyosati global bozorda mustahkam o'rin egallashga xizmat qiladi. Shuningdek, eksport geografiyasini kengaytirish orqali bozorlar diversifikatsiya qilinadi va risklar kamayadi. Umuman olganda, ushbu omillarning uyg'unlashuvi mintaqa to'qimachilik mahsulotlarining xalqaro bozorda barqaror raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Hozirgi davrda to'qimachilik sanoati global iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda davlatlar o'z ustunliklari asosida kuchli raqobat olib bormoqda. Turli mamlakatlar ishlab chiqarish hajmi, arzon ishchi kuchi, texnologiya darajasi va logistika imkoniyatlari orqali bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga intilmoqda. Shu bois, yetakchi davlatlarning kuchli va zaif jihatlarini tahlil qilish mintaqa rivoji uchun muhim yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi (2-jadval).

**2-jadval**

**To'qimachilik sanoati mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirish xorij mamlakatlari tajribasi**[6]

| Davlat | Kuchli tomonlari | Zaif tomonlari | Mintaqa uchun xulosa |
|---|---|---|---|
| Xitoy | Katta hajm, arzon ishlab chiqarish | Ish haqi oshib bormoqda | Texnologiya va hajmda yetakchi |
| Bangladesh | Juda arzon ishchi kuchi | Past texnologiya | Narx bo'yicha kuchli raqobatchi |
| Hindiston | Xomashyo + ishlab chiqarish integratsiyasi | Logistika muammolari | Kompleks rivojlangan tizim |
| Turkiya | Yevropaga yaqin, sifat yuqori | Narx nisbatan yuqori | Sifat va tez yetkazib berishda kuchli |
| Vyetnam | Eksportga yo'naltirilgan siyosat | Xomashyo importga bog'liq | Strategik boshqaruv modeli kuchli |

Tahlil natijalariga ko'ra, har bir davlatning muvaffaqiyati alohida bir omilga emas, balki bir nechta ustunliklarning uyg'unligiga bog'liq ekanligi ko'rinadi. Xitoy texnologiya va hajmda yetakchi bo'lsa, Bangladesh arzon ishchi kuchi orqali narx bo'yicha raqobatbardosh hisoblanadi.

Hindiston integratsiyalashgan tizimi bilan ajralib tursa, Turkiya tezkor yetkazib berish va sifat bilan ustunlikka ega. Vetnam esa strategik boshqaruv va eksportga yo‘naltirilgan siyosati bilan rivojlanmoqda.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining global bozorda raqobatbardoshligini oshirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo‘lib, ular asosan ishlab chiqarish, logistika, marketing va texnologik rivojlanish bilan bog‘liq. Ushbu jadvalda aynan shu muammolar, ularning asosiy sabablari hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif etilayotgan yechimlar umumlashtirilgan (3-jadval).

**3-jadval**

**O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati raqobatbardoshlikini oshirishda muammo va yechimlar[6]**

| Muammo | Sababi | Yechim |
|---|---|---|
| Past qo‘shilgan qiymat | Xomashyo eksporti ustun | Tayyor mahsulot ishlab chiqarish |
| Logistika xarajatlari yuqori | Transport tizimi zaif | Logistika infratuzilmasi |
| Brend yetishmasligi | Marketing sust | Milliy brend yaratish |
| Texnologiya eskirgan | Investitsiya kam | Modernizatsiya |
| Raqobat kuchli | Xitoy, Bangladesh | Niche (maxsus) segmentga kirish |

Keltirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, ayniqsa tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika tizimini rivojlantirish, milliy brendlarni yaratish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarining global bozordagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

**Xulosa**

Mintaqa to‘qimachilik sanoatida raqobatbardoshlik asta-sekin oshib borayotgan bo‘lsada, hali ham asosiy muammo – past qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining yuqoriligidir. Global bozorda barqaror o‘rin egallash uchun xomashyo eksportidan tayyor va brend mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, xizmatlar, logistika va texnologiya bilan bog‘liq omillar ham raqobatbardoshlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil va xulosalar asosida quyidaki takliflar ishlab chiqildi:

- tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushini oshirish;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish;
- milliy brendlarni yaratish va marketing strategiyalarini kuchaytirish;
- logistika infratuzilmasini rivojlantirish va eksport xarajatlarini kamaytirish;
- yangi eksport bozorlarini o‘zlashtirish va diversifikatsiya qilish;
- kadrlar malakasini oshirish va dizayn sohasini rivojlantirish;

Mintaqa to‘qimachilik sanoatining global bozordagi raqobatbardoshligi asosan xomashyo eksportidan yuqori qo‘shilgan qiymatli, sifatli va brend mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish darajasiga bog‘liq. Texnologik modernizatsiya, samarali marketing va rivojlangan logistika tizimi ushbu jarayonning asosiy omillari hisoblanadi. Shu omillar uyg‘unlashgandagina mintaqa xalqaro bozorda barqaror va kuchli raqobat ustunligiga ega bo‘lishi mumkin.

**Iqtiboslar**

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.05.2024-yil. PF-71-son. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari” to‘g‘risida.
2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 19.09.2025. PQ-290-son. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

3) “The competitive advantage of nations is created and sustained through a highly localized process.” (M. Porter, The Competitive Advantage of Nations, 1990)
4) “A country is said to have a revealed comparative advantage if its share of exports of a given product exceeds its share in total world exports.” (Balassa B., 1965)
5) “Digital transformation and advanced manufacturing technologies are key to enhancing industrial competitiveness.” (UNIDO Industrial Development Report, 2022)
6) Barcha jadval va rasmlar muallif ishlanmasi.
7) A.Ortiqov. “Sanoat iqtisodiyoti” TDIU,2009; A.Soliyev. “O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”. T;2014
8) To‘qimachilik sanoati klasterlari rivojlanishining nazariy va ilmiy asoslari oriental renais-sance: innovative, educational, natural and social sciences (e)issn:2181-1784 www.oriens.uz sjif 2023 = 6.131 / asi factor = 1.7 3(6), june, 2023
9) Micro-macro quantification of the internal structure of granular materials(Li.Lin.Yang,2009)
10) Ларионов А.О. Оценка промышленного потенциала региона. Проблемы развития территории. Вып. 2(76) 2015. – 49 с
11) С. А. Нефёдов. Лекции по экономической истории. Уральский гуманитарный институт. Дата обращения: 20 декабря 2021. Архивировано 20 декабря 2021 года

Tadqiqot uz

ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

## ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

## JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

**Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:**

1. *Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.*
2. *Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.*
3. *Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.*
4. *Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.*
5. *Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.*
6. *Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.*
7. *Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.*
8. *Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.*
9. *Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.*

**Требования к оформлению научной статьи:**

1. *Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.*
2. *Начала абзаца – 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.*
3. *В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.*
4. *В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.*
5. *Со следующей строки ключевые слова 7-10.*
6. *Далее начинается основной текст. новной текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.*
7. *Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную дитературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.*
8. *Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.*
9. *Цитирование приводится в тексте [1, 25] Польный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.*

**Requirements of the articles submitted:**

1. *Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.*
2. *The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.*
3. *The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.*
4. *An annotation of 60 words in the next line in three languages.*
5. *Key words from the next row in three languages 7-10.*
6. *The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.*
7. *Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.*
8. *Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.*
9. *A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].*